

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti va Hukumat tomonidan “O‘zbektelekom” AK faoliyati sohasida tasdiqlangan dasturlar va ularning ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar

2025-yil dekabr oyi yakuniga ko‘ra

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari					
T/r	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Yillar kesimidagi maqsadlar		Bajarilish holati
			2025	2030	
1	Respublika hududlarining yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan qamrov darajasi	foiz	85	100	Bajarilmoqda “O‘zbektelekom” AK telekommunikatsiya tarmog‘ida taqdim etiladigan xizmatlar ko‘lamini kengaytirish maqsadida keng polosali qurilmalar sig‘imi 219,3 mingta oshirilib, 5,536 mln. portga yetkazildi va aholi maskanlarini optik tolali aloqa liniyalari va telekommunikatsiya xizmatlari bilan qamrab olish 98 fiozga yetkazildi.
2	Ijtimoiy obyektlarning yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta‘minlanganlik darajasi	foiz	100	100	Bajarilgan Tasdiqlangan rejaga muvofiq barcha ijtimoiy soha obyektlari 100 foiz yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta‘minlandi

2025-yil dekabr oyi yakuniga ko‘ra

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi “Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risi”dagi PQ-132-son qarori bilan Chortoq tumanini 2025-2026 yillarda jadal kompleks rivojlantirish dasturi						
T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi	Muddati	Mas’ullar	Bajarilish holati
1	“Chortoq suv ombori” atrofida 60 gektar maydonda ishlab chiqilayotgan master-reja asosida «Turizm maskani»ni tashkil etish	“Chortoq soy” qirg‘oq bo‘yi hududidagi turizm yo‘nalishidagi investisiya obyektlari muhandislik kommunikatsiyalarini yaxshilash (ichimlik suvi tik qudug‘ini tashkil qazish, suv minorasi, internet, transformator o‘rnatish, elektr, ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish)	Hisob-kitob asosida (Turizm jamg‘armasi, tashabbuskorlar mablag‘lari, bank krediti)	2025 yil dekabr	“O‘zbektelekom” AK	Bajarilmoqda “O‘zbektelekom” AK Sharqiy filiali tarafidan Chortoq suv ombori hududida “Turizm maskani”ning ob’ektlari aniq belgilanib maskanda qurilish ishlari boshlangandan so‘ng murojaatga asosan o‘rnatilgan tartibda telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etishga tayyorligini ma’lum qilamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 apreldagi “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-153-son Qarori

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochi	Bajarilish holati
1.	Manfaatdor idoralar va muassasalar bilan birgalikda 2025 yil yakuniga qadar soxta qo‘ng‘iroqlarni cheklash tizimini to‘liq joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni yakunlasin	2025 yil yakuniga qadar	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Bajarildi Xalqaro qo‘ng‘iroqlarda O‘zbekiston Respublikasi mobil aloqa kompaniyalarining raqamlariga o‘zgartirgan holda firibgarlik qo‘ng‘iroqlarini aniqlash va ularni oldini olish yagona tizimi (keyingi o‘rinlarda - Antispoofing tizimi)ni joriy qilish maqsadida xalqaro tajribalar o‘rganildi va tegishli loyiha ishlab chiqildi. Kompaniya tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro kommutatsiya markazlari tizimlarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan muzokaralar olib borilib va tegishli kelishuvlarga erishildi. Kompaniya tomonidan Antispoofing tizimini joriy qilish bo‘yicha zaruriy server qurilmalari o‘rnatilib, ishga tushirildi. Antispoofing tizimini Xalqaro kommutatsiya markazlari, Kompaniyaning mobil aloqa tarmog‘i, “Humans” MChJ, “Coscom” MChJ, “RWC” MChJ, “Unitel” MChJ va “UMS” MChJ tizimlari bilan integratsiya qilinib, boshlang‘ich bosqichda iyun va sentyabr oylarida sinov tariqasida ishga tushirildi. Tizimda takomillashtirish ishlari olib borilib, 2025-yil yakunida to‘liq ishga tushurilishi ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2025-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosi yuzasidan “O‘zbektelekom” AK tomonidan bajarilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot

2025-yil dekabr oyi yakuniga ko‘ra

T/r	Maqsadli ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	“O‘zbektelekom” AK tomonidan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish muddatlari					Amalga oshirilgan ishlar (Kompaniyaga tegishliligi bo‘yicha)
			2025-yil	Ichorak	II shorak	IIIchorak	IV chorak	
57-maqsad: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish								
1	6-ilova 51-band Barcha aholi punktlarini Internet bilan to‘liq qamrab olish.	foiz	99	98,5	98,7	98,9	99	Bajarildi “O‘zbektelekom” AK tomonidan barcha aholi punktlarini Internet tarmog‘i bilan qamrab olish darajasi 99 foizga yetkazildi.
2	6-ilova 53-band Internet xizmatining kichik tezlikdagi tarif rejasi tezligini 10 barobar oshirish.	Mbit/s	10	8	8	9	10	Bajarildi “O‘zbektelekom” AK tomonidan internet xizmatining kichik tezlikdagi tarif rejasi tezligi ADSL texnologiyasida 10 Mbit/sekundga va FTTB/GPON texnologiyasida 100 Mbit/sekundga yetkazildi
3	6-ilova 54-band Xalqaro Internetga ulanish tezligini 5 000 Gbit/s ga yetkazish.	Gbit/s	4 200	4 200	4 200	4 200	4 200	Bajarildi “O‘zbektelekom” AK tomonidam xalqaro paketli kommutatsiya markazining o‘tkazuvchanlik qobiliyati 4200 Gbit/s ga yetkazildi.
4	6-ilova 55-band Optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini 100 foizga yetkazish.	foiz	97	95	96	96,5	97	Bajarildi “O‘zbektelekom” AK tomonidan optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlari qamrovi 98 foizga yetkazildi.
5	6-ilova 58-band Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarni to‘liq mobil Internet bilan ta’minlash.	foiz	90	86	88	89	90	Bajarildi “O‘zbektelekom” AK tomonidan xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarda mobil internet xizmatlari bilan ta’minlash darajasi 90 foizga yetkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-78-son qarori				
2025-yilda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”				
T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Bajarilgan ishlar
49	Respublikada telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun 30 ming km optik tolali aloqa liniyalarini hamda 6 mingta mobil aloqa tayanch stansiyalarini o‘rnatish	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil dekabr	Bajarildi Telekommunikatsiya operatorlariga respublika hududida o‘rnatilishi belgilangan jami 6000 ta mobil aloqa tayanch stansiyalaridan 3070 tasi “O‘zbektelekom” AK zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, 2025-yil mobaynida Kompaniya tomonidan respublika hududi bo‘ylab mobil aloqa va internet xizmatlari sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha 3101 ta yangi tayanch stansiyalari to‘liq o‘rnatilib, ishga tushirildi.

2025-yil dekabr oyi yakuniga ko‘ra

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-76-son Farmoni			
Raqamlashtirish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”			
T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Bajarilgan ishlar
9	Respublika hududlarida (Toshkent, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida) ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini tashkil etish	2024-2025- yillar	Bajarildi “O‘zbektelekom” AK bilan “Toyota Tsusho Corporation” kompaniyasi o‘rtasida 2022-yil 3-oktabrda imzolangan UZT-TTC-2022-01-son shartnoma doirasida Toshkent, Farg‘ona va Buxoroda quvvati 100 Petabayt sig‘imli ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlashga mo‘ljallangan “Data Markaz”larni ishga tushirish bo‘yicha Toshkent, Farg‘ona, va Buxorodagi obyektlarda umumiy sig‘imi 21,05 Petabayt bo‘lgan 3 ta “Data Markaz”lar ishga tushirish uchun zarur infratuzilmalar va jami 56 dona serverlar va 61 dona kommutator qurilmalari o‘rnatildi va ishga tushirildi.